

ALISHER NAVOIY LUTFIY HAQIDA

Boymuratova Nargiza Bozorboyevna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Lutfiy haqida Alisher Navoiy asarlarida kelgan ma‘lumotlar batafsil tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: Lutfiy hayoti va ijodi, ma‘lumotlar, turkiy adabiyot rivoji, tasavvufiy istilohlar

АННОТАЦИЯ: в данной статье подробно анализируются сведения о Лютфиев творчестве Алишера Навои

Annotation: This article analyzes in detail the information about Lutfiy in the works of Alisher Navoiy

Key words: Lutfiy’s life and work, information, development of Turkish literature, mystical revolutions

Alisher Navoiyning buyuk daho, so‘z mulkingning sultoni, mutafakkir bo‘lib yetishuvida ungacha bo‘lgan davrlarda yashab ijod etgan allomalarning tasavvufiy, diniy, falsafiy, tarixiy asarlari o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi, adabiy manba bo‘lib xizmat qildi. O‘rta osiyoda turkiy til rivojining adabiy o‘chog‘i sifatida Xorazm alohida o‘rin egallaydi. Buyuk allomalardan Sulaymon ota-Boqirg‘oniy(vafoti 1186-87), Burhoniddin Rabg‘uziy asari “Qissas ul-anbiyo”(1310-11), Shayx Sharaf asari “Muin ul-murid”, Xorazmiy “Muhabbatnoma” kabi allomalar asarlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. XV asr birinchi yarmida bir qator shoirlar turkiy tilda samarali ijod qilishdi. Bizgacha turkiy devonlari yetib kelgan: Sakkokiy, Atoyi, Lutfiy, Gadoiy kabi shoirlar chuqur va keng mazmunda g‘azallar bitishdi. Xususan Lutfiy haqida ishonchli ma‘lumotlar Navoiy asarlarida uchraydi. Navoiy o‘z tazkirasi “Majolis un – nafois” da Lutfiyga yuksak baho berib “Malik ul-kalom”, ya‘ni “so‘z podshosi” deya e‘tirof etadi. Jumladan Mavlono lutfiyning iste‘dodli shoir ekanligini ta‘kidlab, tasavvufdan ta‘lim olganligi haqida ham ma‘lumot berilgan. “ Mavlono Lutfiy (alayhirrahma) - o‘z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda, shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhur dur va mutaazzir ul javob matla‘lari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozukluk ichra belicha yo‘q tori gisuyi,
O‘z haddini bilib, belidin o‘ltirur qush’.

Yana biri bukim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,
Soldi kamand bo‘ynuma ikki qulochdin.

Va Mavlononing “Zafarnoma” tarjimasida o‘n ming baytdin ortuqroq masnaviyisi bor, bayozg‘a yozmag‘on uchun, shuxrat tutmadi va lekin forsiyda qasidago‘y ustodlardin ko‘pining mushkul she‘rlarig‘a javob aytibdur va yaxshi aytibdur. To‘qson to‘qquz yashadi va oxir umrida radifi “oftob” she‘ri ayttikim, zamon shuaro si barcha tatabbu‘ qildilar, hech qaysisi matla‘ni oncha ayta olmadilar va ul matla‘ budurkim:

Ey zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,
Shomi zulfatro ba joi moh dar bar oftob.

(ya‘ni “sening tun kabi qop-qora zulfingdan oftob soyada parvarish topdi, sening qora zulflaring quchog‘ida (orasida) oy o‘rnida quyosh turadi”)

o‘tar vaqtida bu g‘azal matlainkim, tuganmaydur erdi, vasiyat qildikim, hazrati Maxdumiy¹ nuran tugatib, o‘z devonlarida bitisunlar va ul matla‘ budurkim:

Gar kori dili oshiq bo kofiri Chin aftad,
Beh z-onki, ba badxo‘I bemehri chunin aftad.

(“Oshiq dilining ishi Chin kofiri (go‘zali) ga tushib qolsa, bu bemehr va badxo‘yning qo‘liga tushgandan bu yaxshiroqdir”).

Mavlono yigitligida ulumi zohiriyni takmil qig‘ondin so‘ngra Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy (alayhirrahma) qoshida sufiya tariqida ham suluk qilg‘ondur. Aziz va mutabarrak kishi erdi.

Bu faqir borasida ko‘p fotihalar o‘qubdur. Umed ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba‘zi mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay. Mavlononing qabri shahr navohisida Dehi Kanordakim, o‘z maskani erdi, andadurur”.²

Lutfiyning so‘z san‘atkori ekanligini Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” da ham ulug‘ shoirlarga tenglab yuksak baho beradi: “Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohrux sultonning zamonining oxirig‘acha turk tili bila shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoyi va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va gadoiydeklar. Va forsiy mazkur bo‘lg‘on shuaro muqobalasida kishi paydo bo‘lmadi bir Lutfiydin o‘zga”.³

Lutfiy forschani mukammal bilgan o‘z davrining “zullisonayn” (“ikki tilda ijod qiluvchi”) nomiga mos shoirlaridan edi. Lutfiy she‘riyatida soddalik, go‘zal o‘xshatishlar, so‘z o‘yinlari, xalqonalik, ohangdorlik, so‘zlarga ustalik bilan ma‘no yuklash usullari ko‘zga tashlanadi. Bevosita Lutfiy ham yosh Navoiy ijodidan xabardor ekani va Navoiy she‘riyatiga munosabat bildirgani tarixiy asarlarda uchraydi.

¹ Alisher Navoiy M.A.T 20 jildlik. 13-jild. 2-majlis. 50-b

² Alisher Navoiy M.A.T 20 jildlik. 13-jild. 2-majlis. 50-b

³ Abdurahmon Jomiy (7. XI. 1414-9. XI. 1492).; Hodi Zarif “Fozillar fazilati”, 49-b

Jumladan: Lutfiyning Navoiy ijodiga bergan yuksak bahosiga oid bir ma‘lumot Davlatshoh Samarqandiyning yosh zamondoshi G‘iyosuddin Humouddin o‘g‘li Xondamir (Hirot, 880/1475-940/1535 y) ning “Makorim ul-axloq” (“Yaxshi xulqlar”) asari orqali bizgacha yetib kelgan.

Navoining “Majolis un – nafaos” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlarida ma‘lumot berilishicha Lutfiy Navoiyning ijodda yuksak cho‘qqiga ko‘tarilishini umid qilgan. Lutfiy yosh Navoiyning quyidagi ikki misra turkiyda bitilgan she‘riga ya‘ni:

yopqoch ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,
‘ylakim paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh.

Matla‘li g‘zalini eshitib g‘oyat hayratlangan va Navoiy ijodiga yuksak baho bergan. Lutfiy o‘zining adabiy ijodi bilan Navoiygacha bo‘lgan turkigo‘y shoirlarning eng mashhuri, iste‘dodlisi bo‘lgan.

Shuningdek Alisher Navoiyning “Nasoim ul-muhabbat” asrida Lutfiy bilan Abdurahmon Jomiy o‘rtasidagi ijodiy munosabatlar haqida ma‘lumot bergan: “To‘qson yoshidan tajovuz qilg‘ondin hazrat mahmudiy navvara marqadahu nuran otig‘a “Suxan” qasida aytib kelturub ediki, zamonining xushgo‘ylari barcha xo‘bluqg‘a musallam tutdilar va ul hazratdag‘I insof berdilar va oning matla‘i budur:

“Zihi hadisi labat quti ruhu joni suxan,
Guli suxan chaman oroyi bo‘stoni suxan”.

(Labingdin chiqqan so‘zlar, so‘zning ozig‘i, joni va ruhidir, So‘zning guli, so‘z bo‘stonining zebidir). Ul hazrat shukruguzorlik yuzidan ma‘zarat izhor qilib dedilarkim, “Bu she‘rni silasi uhdasidin biz chiqa olmaymiz, magar muqobalada ham qasidai Sizning otingizga aytqaymiz, Sizning kiygan eski to‘ningizni gadolik qilurmiz”. Mavlono dedilarkim, “Oni sizga oson qilurmizkim, sila bo‘lg‘ay”. Ul hazrat uzrxohlik bila kisvatni anga kiydurdilar”.⁴ Bu ma‘lumotlat Lutfiyning Forsiy tilni ham yaxshi bilgani va kamolot cho‘qqisida ijod qilgani va zamonasining fozil adiblari nazariga tushganini bildiradi. Lutfiyning turkiy tilda yozgan g‘azallari bizgacha devon holida yetib kelgan, forsiy tilda yozgan ayrim g‘azallarigina aniqlangan, lekin forsiy devoni yetib kelmagan.

Lutfiy ijodida ham Navoiy asarlarida ham haqiqatni majoziy usulda ifoda etish san‘ati mahorat bilan ishlatilgan. Bunda shoirlar turli majoziy timsol va obrazlardan foydalangan. Lutfiy ijodi soda ammo chuqur ma‘noni ifoda eta olishi bilan o‘ziga xoslikni ifoda eta oladi. Alisher Navoiyning “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida quyidagi suhbat keltiriladi, ya‘ni kunlardan bir kuni Pahlavon Muhammad Navoiydan so‘raydi. Sening aqidangcha “Turkigo‘y shuarodin” she‘rlari zamon sahifasida sabt bolgan shoirlardan qaysi biri yaxshiroq aytgan? Qaysi biri senga ma‘qul va seningcha yaxshi? Navoiy javob beribdi: -“Mavlono Lutfiy holo musallamdurlar va bu qavmning

⁴ Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug‘atayn”, Toshkent, 1940, 38-63-betlar.

ustodi va malik ul-kalomdir”. Pahlavon Muhammad: “Nechuk Nasimiy demanding, deganida, Navoiy: “Xotiring‘a kelmadi va bartaqdir kelmoq, Sayyid Nasimiyning nazmi o‘zga rang tushubtur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g‘arazing majoz tariqida aytur el erdi”.⁵

Quyidagi misralar orqali Lutfiy ijodining Navoiy she‘riyatiga ta‘sir izlarini ko‘rishimiz mumkin:

Lutfiy:

Ey soqiyi majlis, sol iliktin qadahu jom,
Kim ko‘zlarining davrida hushyor topilmas. ⁶

Navoiy:

Soqiyi bazm, yana tutma manga jomi firoq,
Kim, bu sog‘arning erur choshniyi shiddati talx.⁷

Har ikkala misrada “soqiy”, “jom” va “sog‘ar” kabi tasavvufiy istiloh qo‘llanilgan. “Jom”-ma‘rifat bodasidan to‘la, orifning dil va ahzoli. Ba‘zilar jom-badan, jismni tozalovchi, soflavchidir, deydilar, zero komil orif ilohiy boda jomidan ichadi va tavhiddan sarmast bo‘ladi. Mastlik deganda, ishqning chulg‘ab olishi, botiniy va zohiriy sifatlar, ma‘rifat sarhushligiga g‘arq bo‘lish nazarda tutiladi.

“Soqiy”- odamlarga suv va sharob kabi ichimliklarni ulashuvchi kishi. Tasavvufda ma‘rifar, haqiqat bodasini ulashuvchidir. Ba‘zan soqiydan murodkavsardir va u goho murshidga ham nisbat beriladi. Soqiy barcha mavjudotga fayz beruvchi, sarhushlik ulashuvchi manbadir. Boshqa bir manbada shunday deyiladi: “Soqiy Xudodurki, oshiqqlarga haqiqat mayini ichiradi va ularni mahvu foniy qiladi. Bu so‘z (soqiy) istiora yo‘li bilan “murshidi komil” ni anglatadi. Soqiy biror qavm yoki qabilaning diniy rahbari va oshiqqlar yuzidan ma‘naviy husn sharobini ichadigan ma‘shuqdir.

“Sog‘ar”-may idishlarining nomi. Tasavvufiy istiloh, orifning qalbini ifoda etadi”⁸. Irfoniy Ilohiy ishqni, holat va kayfiyatni ifoda etuvchi ushbu misralarda Navoiy ijodining Lutfiy adabiy merosi bilan naqadar uyg‘un ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tarixiy asarlarda keltirilgan ma‘lumotlardan Navoiyning Lutfiy ijodini chuqur va keng qamrovda o‘rganganligini bilamiz.

“Majolis un-nafois” oxirida “Xilvat” deb berilgan faslida Navoiy Lutfiy bilan bog‘liq naql keltiradi: Bahor kunlarining birida bulut oshiqqlar ko‘z yoshlaridek yosh to‘kar, har qatrasini ma‘shuq va‘dasidek bir mavhum tosh oshkor etar edi. Shunday bir paytda Lutfiy Navoiyga duch kelib, Amir Xisrav Dehlaviyning hinducha ash‘orlaridan ajoyib bir ma‘noni aytib beribdi: Mahbub bahor ayyomida qaygadir ketayotganda ,

⁵ Xondamir. “Makorim ul-axloq”. Toshkent, 1967, 45-46-betlar.

⁶ Lutfiy. Devon. Toshkent. 2012. Sodir Erkinov. 124-b.

⁷ Alisher Navoiy. M.A.T 20 jildlik. 15-jild. Toshkent. 1999. 115-116-b.

⁸ Atoy Devlon. Fannashriyoti., -T: 2008-y, 285-305-betlar, Sayfiddin Sayfulloh.

yog‘in sababidin yer balchig‘ bo‘lib, u toyib ketib yiqilayozgan ekan. G‘oyatda nozikligidan yog‘in rishtasidan-toridan tutib, o‘zini o‘nglab olibdi. Navoiy Xisrav Dehlaviyning bu nozik ifodasidan xushhol bo‘lib, tab‘ ahlidan kimga aytib bersa ular ham qoyil qolibdi. Bir kun “Oliy majlis”da Navoiy Husayn Boyqaroga ⁹Lutfiyning Amir Xisravdan keltirgan “g‘arib ma‘no” sini to‘lib toshib gapirib beribdi. Husayn Boyqaroga ham xush kelib maqtab ketadi deb o‘ylabdi, lekin xushhol bo‘lgandek bo‘libdiyu, ko‘p iltifot qilmabdi. Keyingi majlislarning birida Navoiy shohning nimaga e‘tiroz uyg‘onganini so‘rabdi. Boyqaro debdiki: “E‘tiroz budurki, yog‘in qatrası yuqoridin quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtasig‘a dag‘I hamul holdur. Rishtasikim, mayli quyi bo‘lg‘ay, aning madadi bila yiqiladurg‘on o‘zini asramog‘i maholdur”.¹⁰ Navoiy bu tahlilni eshitgach Boyqaroning mantiqiy mushohadasi va she‘riy qobiliyatini tan oladi.

Alisher Navoiy Lutfiy hayoti va ijodini yaxshi bilganki uning yuqorida keltirilgan bir qancha asarlarida ishonchli ma‘lumotlar bizgacha saqlanib qolgan.

¹⁰Alisher Navoiy. M.A.T 20 jildlik. 15-jild. Toshkent. 207-b